

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI AJDODLARIMIZ ME'ROSI VOSITASIDA
TARBIYALASH

Sh.N.Xazratkulova

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ajdodlarimizning ilmiy merosi - zamonaviy bilimlarni egallashning fundamental asosi ekanligi, bugungi kunda ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasining dolzarbligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ilmiy meros, raqamli iqtisodiyot, raqamli bilimlar, ta'lim sifati, zamonaviy ta'lim.

Аннотация: В статье научное наследие наших предков - современные знания что фундаментальной основой обладания сегодня являются наука, просвещение и цифровые технологии. актуальность экономического развития.

Ключевые слова: научное наследие, цифровая экономика, цифровые знания, качество образования, современное образование.

Annotation: The article deals with the scientific heritage of our ancestors - modern knowledge that the fundamental basis of possession is science, enlightenment, and digital today the urgency of the issue of economic development.

Keywords: scientific heritage, digital economy, digital knowledge, quality of education, modern education.

Mustaqillik yillarida mamlqatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtidoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi O'zbekistonda jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojlanishining muhim omiliga aylandi. Yurtimizda inson omilini yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lim siyosati asosiy masala hisoblanadi. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar umumjahon ta'lim talablari doirasida amalga oshiriladi. Biroq, turli oqim va yo'nalishlarning davlat standartlaridan tashqari faoliyati, xatti - harakatlari bizda ma'naviy tajovuz sifatida qabul qilinadi va ular qonun bilan ta'qiqlanadi. Demak, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda, kamolga erishishda, qonun bilan himoyalanihi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim - tarbiya jarayonida shunday islohatlar amalga oshirilmoqdaki uni ko'z bilan ko'rib qalb bilan his yetish kerak. O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh valodga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunning yoshlari ertangi kun davlatimizni ravnaqiga xizmat qiladigan uning buyukligini yanada yuqoriga ko'taradigan, otabobolarimiz tomonidan bizlarga qoldirgan ulkan boy ma'naviy merosini boyitib, sayqal berib, takomillashtirib kelgusi avlodlarga yetkazib beradigan shaxs qilib tarbiyalash kerak. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham biz milliy - ma'naviy qadriyatlarni tarbiya va ona tili va o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilar ongiga singdirish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

Milliy ma'naviy qadriyatlarning yoshlar ongida tarkib topishida oiladagi munosabatlar eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bunda oilada, oila a'zolari tomonidan bir-biri bilan bo'layotgan muloqat jarayonida yoshlar ularni o'zlarida aks yettirishga harakat qiladi. Qachonki oilada sharqona munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bola tarbiyasiga jiddiy qarab ularni sharqona nafosat doirasida tarbiyalashga harakat qilinsa, o'z-o'zidan bolalarda milliy-ma'naviy qadriyatlar shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga milliy – ma'naviy qadriyatlarni singdirishda bugungi kunning keng ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak. Buning uchun biz zamonaviy pedagogik texnologiya fanining mazmun mohiyatini anglab olishimiz zarur.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e'tirof etgan inson ma'naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o'quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Madaniy merosimizga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan allomalarimiz Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar ijodini o'rganish kelajak avlod uchun katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning har biri jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo'shib kelgan. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarlari ma'naviyat durdonalaridan biridir. Shu o'rinda "qomusiy" so'zini qo'llaganimiz tasodifiy emas. Har bir yaratilgan asar o'quvchini, kitobxonni bir yo'nalishda tarbiyalaydi. "Qutadg'u bilig" asari esa davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-rusumlarini, axloqiy prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan, qomusiy asar sifatida yuzaga keldi. Bu asar didaktik yo'nalishga ega bo'lib, unda davlatni idora qilish usullari, oddiy xalqdan tortib oliy darajadagi mansab egalari ellikxonlargacha — olim, shoir, dehqon, chorvador, kosib singari ko'plab tabaqa, toifa, ijtimoiy guruhlarning fe'l-atvori qanday bo'lishi lozimligi, davlat qurilishi, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, umuman, siyosiy-ijtimoiy, moddiy-ma'naviy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar o'sha davr talabi nuqtayi nazaridan yo'l-yo'riqlar badiiyat qonunlari asosida tavsiflangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, bilimli inson qilib tarbiyalash vazifasi ko'p jihatdan boshlang'ich sinflarda ta'limni to'g'ri uyushtirish, xususan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning nutqini talab darajasida o'stirish bilan o'zaro bog'liq. So'z zahirasi boy o'quvchining fikrlash doirasi keng, ma'naviyati yuksak, o'qish-o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lishi tabiiydir.

Boshlang'ich sinflardagi o'tiladigan fanlar orqali o'quvchilarda savodxonlik sifatleri shakllantiriladi, kitobga bo'lgan muhabbat tuyg'usi uyg'onadi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari kengaytiriladi, nutq va tafakkuri oshadi. Nutq tarbiyasida "matn" ham markaziy tushuncha hisoblanadi. Zero, umumiy o'rta ta'lim maktabida nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarning pirovard maqsadi o'quvchini o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin bayon qilishga o'rgatishdir. Bola kichik yoshida ta'sirchan, atrofdan kelayotgan barcha ma'lumotlarni tez qabul qiluvchi bo'ladi. U nimani eshitsa, eshitganicha talaffuz qilishga va uni, nutqida qo'llashga intiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yili boshidanoq nutq doirasini aniqlab, nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish choralari ko'rish va ular ustidan ish olib borish lozim. So'z boyligi o'quvchilarga barcha fanlardan beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish hamda ta'lim dasturlarida ko'zda tutilgan ko'nikma-malakalarni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, nutqini o'stirish talabi zaminida, nutq madaniyati turadi. Farzandlarning ma'naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berib kelingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqishma-bosqish amaliyotga joriy etish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori. -8 b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" HMUY, 2017.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2017. I TOM.
5. Mirziyoyev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2018. II TOM.
6. Mirziyoyev Sh. Erkin vafaravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2018.
7. Abduxamidov, S.M., & Shadiyev, A.Y. (2020). Milliy qadriyatlar qadr topgan maskan. Maktab va hayot, 2(1), 25-26.
8. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. (2022). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN EDUCATION OF STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(2), 123–126. Retrieved from
9. Sh. N. Khazratkulova. (2023). EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS. Academia Science Repository, 4(04), 644–646. Retrieved from
10. Xazratkulova, S., & Abdiraxmonov, S. (2023). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).
11. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.
12. Sh.N.Xazratkulova "Boshlang'ich sinflarda tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar" Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Том 2 № 1 (2023) 855-859-с.

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/issue/view/14>